

MANUFACTURING OF MEN'S WRONG CLOTHES

**Nasirova Muqaddas Baxtiyarovna
Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna**

Namangan Institute of Engineering and Technology

Abstract: This article deals with the production and design of clothing for men with unusual shapes, which analyzes what the body is and its types, the deviations from the typical figure. In addition, a survey conducted during our study was widely discussed.

Keywords: stature, typical stature, unusual stature, design, men, questionnaire

ERKAKLAR NOTIPOVIY QOMATLARIGA MOS KIYIMLARNI

ISHLAB CHIQARISH

**Nasirova Muqaddas Baxtiyarovna
Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna**

Namangan muxandislik- texnologiya institute

Annotatsiya: ushbu maqolada erkaklar notipoviy qomatlariga mos kiyimlarni ishlab chiqarish va uni loyihalash bo'yicha bo'lib, unda qomat nima va uning turlari, tipaviy qomatdan og'ishgan qomatlar tahlil etilgan. Bundan tashqari tadqiqotimiz davomida tashkil etilgan so'rovnama keng muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: qomat, tipaviy qomat, notipaviy qomat, loyihalash, erkaklar, so'rovnama.

Qomat, boshqa mor fologik belgilar kabi ma'lum darajada odam gavdasi tashqi shakl larining xususiyatlarini belgilaydi. Shuning uchun qomatni o'rganish antropologlar va shifokorlar, shuningdek, tikuvchilik ishlab chiqarish mutaxassislari uchun muhim ahamiyatga ega. Fanda odam qomatini tinch va to'g'ri yurgan vaziyatda, tananing vertikal holatida o'rganiladi. Qomatning vertikal va ziyatda bo'lishi deb, tinch holat, ya'ni mushaklar va tananing muvozanatda turishida organizmning kam energiya sarflashi tushuniladi. Bu holat ilmiy adabiyotlarda «tabiiy holat», «birin chi holat», «qadni rostlangan vaziyat» deb ham ataladi. Qomat deganda, gavdani muvozanatda saqlash uchun minimal energiya sarfianadigan tabiiy (tinch) holatda odam tanasi konfiguratsiyasining individual xususiyatlari tushuniladi. Qomatga boshqa

morfologik belgilar singari o'zgaruvchanlik ham xosdir. Qomatning o'zgaruvchanligiga asosan umurtqa pog'onasi shaklining o'ziga xos xususiyatlari, chanoqning oldga egilganlik darajasi ta'sir ko'rsatadi. Qomatning holati mushak laming qisqarishiga ham bog'liq bo'lib, antropometrik, tabiiy va harbiy holat turlariga bo'linadi.

L.P. Nikolayevning qomatni tasniflab bergan taklifi tikuvchilik sanoatida ko'proq qiziqish uyg'otdi. Bunga ko'ra, u qomatni beshta turga bo'ladi: normal, to'g'ri, bukchaygan, lordoz va kifoz. Normal qomat umurtqa pog'onasining bir tekis egilganligi bilan xarakterlanadi. To 'g'ri qomat umurtqa pog'onasi hamma bo'limlarining kuchsiz egilganligi bilan xarakterlanadi. Bukchaygan qomat bo'yin lordozining oldinga ko'proq egil ganligi va bel lordozining kamayganligi (orqa dumaloq shaklda bo'ladi) bilan ajralib turadi. A.P. Nikolayevning ma'lumotlariga ko'ra, bunday qomatlar ko'proq qariyalarda uchraydi. Lordotik qomat bel lordozining kuchli va bo'yin lordozining kuchsiz rivojlanganligi bilan xarakterlanadi. Kifotik qomat ko'krak kifozining keskin kuchayib ketishi bi lan xarakterlanadi. Tikuvchilik sanoatida qabul qilingan tasniflanish bo'yicha qomatning asosiy uch xil tipi farqlanadi: bukchaygan, normal va kekkaygan. Qomatning u yoki bu qomat tipiga mansubligini aniqlashda tana yuqori qismining egilganligini bildiradigan parametr — gavda holati ishlatiladi. Ikkinci parametr sifatida — yelka qiyaligining balandligi Bn qabul qilingan.

Tikuvchilik sanoatida qabul qilingan erkaklar qomatining tasnifi bo'yicha bukchaygan, normal va kekkaygan turlari farqlanadi. Bukchaygan qomatning orqasi ko'zga tashlanadigan darajada dumaloqroq, ko'krak chiqqan, yelka oldinga bukchaygan, belda biroz egilish bor, ko'kraklar tor, orqa kengaygan, orqa belgacha uzunroq, old kaltaroq bo'ladi. Normal qomat - o'rtacha variant, to'g'ri qomat va to'g'ri toslar bilan xarakterlanadi. Kekkaygan qomatning orqasi yassi, kuraklar tekis, yelkalar orqaga yo'nalgan, bel ko'proq egilgan, ko'krak keng, orqa toraygan, old belgacha uzunroq, orqa belgacha kaltaroq


bo'ladi. Sanoatda ishlab chiqariladigan buyumlar faqat tipaviy qomatlarga moslab tayyorlanadi. Lekin hayotda normaldan farqlanadigan qomatlar uchrab turadi. Ular qatoriga bukchaygan va kekkaygan, past yelkali hamda baland yelkali tiplar kiradi. U lar uchun qaddi qomatni tavsiflaydigan o'lcham lardan biri gavda holati yoki yelka balandligining me'yoridan farqlanishidir. Kiyimning statikada qomatga mosligi, muvozanati o'lchamlari va shakllari tananing yuqori tayanch uchastkasi hajmiy shakliga nechog'liq mosligi bilan baholanadi. Odam-kiyim tizimida o'lchamlar to'g'ri kelmasa, balans buzilib, qator nuqsonlar paydo bo'ladi. Natijada bort chetlari, yon choklar, yeng holati vertikaldan og'adi, etagi buyumning tashqi ko'rinishini buzadi. Demak, qomatda kiyim ornashuvining sifatiga birinchi navbatda qomat tuzilishi ta'sir etadi. Tipaviy tuzilishdan og'uvchan bo'lgan qomatda kiyim konstruksiyasining old-orqa va yon balanslari buziladi. Bu hoi o'z navbatida kiyimning ornashuvida qator nuqsonlarga sabab bo'ladi.

Quyida biz erkaklarning notipaviy qomatlariga mos kiyimlarni loyihalashni ko'rib, tahlil etidik: Uchinchi to'lalik guruhiga mansub bo'lgan chiqqan qorin va katta bel aylanasiga ega qomatlar uchun yelkali buyumlar konstruksiyasi old bo'lak o'rta chiziq bo'ylab qorin sathidan etakkacha kengaytiriladi. O'rta chiziq siljishi qorin chiqig'iga oid qo'shimcha qiymatiga bog'liq. Qorin chiqig'iga qo'shimcha qiymati 1 sm dan 2 sm gacha olinadi yoki qorin va ko'krak bezlari chiqig'i ayirmasi tariqasida aniqlanadi. Old bo'lak chizmasida o'rta chiziqning yuqori nuqtasi o'miz tomonga 0,5 sm dan 1 sm gacha suriladi.

Bundan tashqari, tadqiqotimizni o'rganish vaqtida so'rovnama yaratdik. Ushbu so'rovnama O'zbekiston Respublikasi Farg'ona shahri xalqining 300 ta turli yoshdagi, erkak jinsli shaxslari o'rtasi o'tkazildi. Sòrovnama òtkazishdan maqsad, xalq orasidagi notipoviy erkaklar uchun ularga kiyayotgan kiyimlarining noqulaylik tug'dirayotgan tomonlarini aniqlash va ularning o'z fikrlari bøyicha zamonaviy va qulay bølgan kiyim modelini yaratib, konstruksiyasini ishlab chiqib tahlil qilishdir. Sòrovnama yuqori kayfiyat va


qiziqish bilan òtkazildi. So'rovnama marketing tahlilini diogramma usulida olishda ijobiy natijaga erishildi va notipoviy erkaklar orasidagi muammolarni tahlil qilish davom etmoqda.

Kiyim xarid qilayotgan vaqtningizda aynan o'z o'lchamingiz bo'yicha kiyim olsangiz xam qaysi qismi sizga to'g'ri kelmaydi?



1-diagramma

Qanday ko'ylak gazlamasi sizga ko'proq yoqadi?



2-diagramma

Yuqoridagi ilmiy izlanishimiz quyidagi so'rovnomalari orqali o'z ifodasini topdi:

FISH: _____

Yoshi: _____

Jinsi: _____

Kasbi: _____

1. Qanday ko`ylak gazlamasi sizga ko`proq yoqadi?
 - a. Mayda gulli ko`ylak
 - b. Yirik gulli ko`ylak
 - c. Yo`l-yo`l gulli ko`ylak
 - d. Gulsiz (sidirg`a) gazlamali ko`ylak
2. Kiyim xarid qilayotgan vaqtingizda aynan o`z o`lchamingiz bo`yicha kiyim olsangiz xam qaysi qismi sizga to`gri kelmaydi?
 - a) Yelka qismi tor keladi
 - b) Yengi kalta keladi
 - c) Qorin qismi tor keladi
 - d) Kiyim kalta kaledi
3. Kiyim ustingizda, ya`ni tanangizda qanday turganini ma`qul korasiz?
 - a) Keng turadigan
 - b) Sal yopishib turadigan
 - c) O`tta yopishib turadigan
 - d) Trapetsiya
4. Qaysi bichimdagi yenglar sizga ko`proq yoqadi va qulay keladi?
 - a) O`tkizma yengli
 - b) Yaxlit bichimli
 - c) Reglan yengli
 - d) Kombinatsiyalashgan
5. Qaysi uslubda kiyinish sizga qulay?
 - a) Klassik uslubida
 - b) Zamonaviy uslubida
 - c) Sport kiyim uslubida
 - d) Farqi yo`q
6. Kiyimda qanday taqilmalarni qo'llanilishini hohlaysiz?
 - a) Zamok
 - b) Tugma
 - c) Knopka
 - d) Lipuchka
7. Shim kiyganingizda qaysi qismi sizga noqulaylik tug'diradi?
 - a) Bel qismi
 - b) Og' qismi
 - c) Son qismi
 - d) Tizza qismi
8. Qanday turdag'i shimplar sizga ko`proq yoqadi?

- a) Klassik uslubidagi shimlar b) Jinsa shimlar
- c) Sport uslubidagi cho'ziluvchan triko d) Shortik
9. Qaysi turdag'i cho'ntak qulay?
- a) Ikki yon qismidagi cho'ntak b) Ustki qoplama cho'ntak
- c) Ichki ko'rinas cho'ntak d) Qopqoqli qoplama cho'ntak

10. Kiyimlardan ko'proq qaysi biri yoqadi?

- a) Klassik uslubdagi ko'yvak b) Kostyum
- c) Yahtak d) Ustki sport kiyimi

Sizning qo'shimcha fikringiz va kiyimga bo'lgan munosabatingizni yozib
qoldiring.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Noel Chapman va Judith Cheek. «Creative fashion drawing», London, Arcturus, 2012 .
2. B. Baymetov. "Plastik anatomiya" (amaliy mashg'ulotlar). T., Nizomiy nomidagi TDPU. 2011.
3. B.B.Boymetov, M.S. Tolipov. Plastik anatomiya. T.: "Ilm Ziyo" nashryot uyi 2005- 198 b.
4. Tomoko Nakamichi, Patter Magic -L.: EC1V 1LR-2013. -53 p.
5. Mark and Mary WillenbrinkDrawing&Painting -Boston, 2010
6. Н.С. Макавеева. Основы художественного проектирования костюма. Практикум. - М.: Академия, 2008.-230
7. Л.А.Сафина, Л.М.Тухбатулина, В.В.Хамматова – Проектирование костюма - Ростов-на-Дону: Феникс, 2007.-283 стр.
8. Хасанбоева Г.К. Костюм дизайни. Т.: ТТЕСИ, 2013 Журналы «Style», «Vogue», «BurdaModen», «Индустрия моды», «Текстильная промышленность», «Кожевенно-обувная промышленность», Журнал «Швейная промышленность».
9. G.K.Hasanbayeva. „Kiyim modelini ishlash va loyihalashsini tayyorlash“. Toshkent. O'qituvchi. 1990-yil.
- 10.. A.P.Rogova. „Erkaklar va bolalar ustki kiyimini loyihalash asoslari“. Toshkent. O'qituvchi. 1988 yil.